

2020– yilning yanvar – mart oylarida Toshkent viloyatining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020– yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 3 300,4 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 3 110,4 mlrd. so‘mni (103,9 %), o‘rmon xo‘jaligi – 151,9 mlrd. so‘mni (101,9 %), baliq xo‘jaligi – 38,1 mlrd. so‘mni (105,0 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 13,2 % ni tashkil etdi.



3 300,4

**Toshkent viloyati bo‘yicha
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

01



**3 110,4 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02




151,9 O‘rmon xo‘jaligi

03




38,1 Baliq xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2020–yilning yanvar – mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 94,2 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 4,6 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,2 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2020–yilning yanvar – mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Zangiota (340 mlrd. so‘m), O‘rtachirchiq (261 mlrd. so‘m) va Yangiyo‘l (256 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo‘l (4 mlrd. so‘m), Ohangaron (7 mlrd. so‘m) va Olmalik shahar (12 mlrd. so‘m)larini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘shish sur‘atlari Ohangaron shahri (107,2 %), Olmalik shahri (104,4 %) va O‘rtachirchiq tumani (104,1 %)da kuzatildi. Nurafshon shahri (102,3 %), Bekobod shahri (102,6 %), Ohangaron tymani (102,7 %), Angren shahri (103,3 %), va Chirchiq shahri (103,6 %)da esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 097,4 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 213,4 mlrd. so'mni (103,3 %), chorvachilik mahsulotlari – 2 884,0 mlrd. so'mni (104,0 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

6,9 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




93,1 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 82,6 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,7 % i – fermer xo'jaliklariga, 11,7 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2020– yilning yanvar – mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent tumanida (15,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Nurafshon shahrida (99,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Ohangaron shahrida (43,9 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2020– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 213,4 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,9 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 13 737 t. sabzavotlar (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 3,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 69,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Toshkent viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2020– yilning yanvar – mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 884,0 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,1 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 68,0 ming t. go‘sht (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 4,2 % ga ko‘p), 156,6 ming t. sut (3,6 % ga ko‘p), 253,5 mln. dona tuxum (4,4 % ga ko‘p), ishlab chiqarildi va 2 453 t. baliq (5,0 % ga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 68,0 ming t. go'sht (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 4,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 82,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Toshkent viloyati bo'yicha **go'sht** (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 156,6 ming t. sut (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 3,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 253,5 mln. dona tuxum (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 4,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 48,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Toshkent viloyati bo'yicha olingan **tuxum** hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 453 t. (2019–yilning yanvar – martiga nisbatan 5,0 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 78,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Toshkent viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2020– yining 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 26,1 % i fermer xo'jaliklariga, 70,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 3,7 % i fermer xo'jaliklariga, 61,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 34,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 879,4 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 22,9 ming taga (2,7 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 87,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati
bo'yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 368,3 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 5,1 ming taga (1,4 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 938,3 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni - 58,4 ming taga (6,6 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 70,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 51 194 taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 1 936 taga (3,9 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sish sur‘ati



Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 82,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati bo'yicha **otlarning** umumiy bosh soni, bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 14 994,0 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 1 159,5 ming taga (8,4 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 61,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 71-230-86-68
• 71-230-86-69